



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

Jumladan, Abu Nasr Farobiyning "Katta musiqa kitobi", Zaynullobiddin Husayniyning "Qonuni ilmi, amali musiqi", Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqiy", Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", Darvesh Ali Changiyning "Musiqiy risola"lari bunga yorqin misoldir.

Hayot taraqqiyoti jarayonlarida, musiqa madaniyatining o'ziga xos kamol topganligini esa, hozirgi zamon musiqa san'ati ko'lamidan ilg'ab olish mushkul emas. Buning negizida musiqa san'ati va uning ichki unsurlarini professionallik darajada umumlashish bosqichlarini o'tashi, bu jarayonda mutanosib tovush pardalarini o'yg'unlashtirish hamda barcha barobar qabul qilishlari kabi mezonlar, umumbashariyat musiqa san'atining go'zal uyg'unlashishiga olib kelganligini e'tirof etish lozimdir.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 avgustdagi "O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PK-3212-sonli qarori (Elektron resurs) // www.uza.uz.
2. Ibrohimov O. O'zbek xalq musiqa ijodi. 1-qism (metodik tavsiyalar). – T.: O'zR XT o'quv metodik markazi, 1994, 62-b.
3. Rasulov O'. Ko'zga aylansin ko'ngil. – T.: O'zbekiston Respublikasi Tibbiyot Akademiyasi nashriyoti. 2012, 64-b.
4. To'rayev F.J. Buxoro mug'anniylari. – T.: Fan, 2009, 323-b.
5. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T.: Fan, 1993, 56-b.
6. Юнусов Р.Ю. Маками и мугами. – T.: Фан, 1992.
7. Yunusov R.Yu. O'zbek xalq musiqa ijodi. 2-qism. (O'quv-uslubiy qo'llanma). – T.: Ziyochashma, 2000, 56-b.
8. O'zbek musiqasi tarixi. Tuzuvchilar: T. Solomonova, T.G'ofurbekov. – T.: O'qituvchi, 1981, 13

“O‘ZBEK XALQ MUZIKASI”, YUNUS RAJABIY TO‘PLAB NOTAGA OLGAN 1-KITOB XUSUSIDA

Sh.O. G'ulomov,

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
“San'atshunoslik (musiqashunoslik)” ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: R.Y. Yunusov,
san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor.*

Ko'p asrlik tarix ila boy qadr-qimmatga ega bo'lgan milliy musiqiy merosimiz serqatlam, uslublarga boy va beqiyosligi bilan o'ziga xosdir. Vaqt o'tishi bilan rivoj topib, sayqallanib, ko'rkamlashib kelayotgan bunday boyliklarimizni avaylash-u e'zozlash har qachongidan ham ahamiyatliroq bo'lib bormoqda. Bu borada O'zbek xalq muzikasi to'plamining birinchi jildida musiqashunos Yan Borisovich Pekkning shunday fikrlari bitilgan edi: "... o'zbek muzika madaniyati oldida turgan katta vazifalar munosabati bilan, ko'p asrlardan beri xalq tomonidan yaratilib

kelingan nodir muzika merosini o'zlashtirish, taraqqiy ettirish va ijodiy usulda qaytadan ishlash masalalari alohida ahamiyatga egadir".⁴³

Demak, minglab ijodkorlar ilhomida sayqallanib, bizgacha yetib kelgan musiqiy me'rosimizni kelgusi avlodga ham yetib borishini ta'minlash – bizning ajdod-u avlodlarimiz oldidagi burchimizdir. XX asrgacha, asosan, ustoz-shogird an'anasi orqali og'zaki tarzda kechgan mazkur jarayonga keyinchalik zamonaviy texnologiyalar-u metodikalar anchagina qulayliklar olib keldi.

Yuqorida keltirilgan milliy musiqiy me'rosimizni avaylash-u e'zozlash haqidagi fikrning amali aslida uning ijod qilinishi, yozib olinishi, to'plash, notalashtirishdan to targ'ibotiga qadar bo'lgan oqimda kechishi lozim.

Maqolamiz bevosita ayni notalashtirish jarayoni bilan bog'liqligini inobatga olgan holda, tarix bilan biroz yuzlanishni joiz topdik.

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib bizning hududga Rus imperiyasining bostirib kelishi turli xil voqealarga sabab bo'ldi. Rus harbiy orkestri, g'arblik ijrochilarining gastrol safarlari va umumiy jarayon orqali asta-sekin Yevropa musiqa madaniyatining hududimizga tarqalishi bir tarafdin ko'plab islohotlarga zamin yaratdi. Zamonaviy musiqiy nota yozuvi o'lkamizda ham qo'llanila boshlanishi, chet ellik musiqashunos-etnograflarda o'zbek milliy musiqasiga nisbatan qiziqishlarning ortishi, noyob musiqiy durdonalarimiz tadqiq etila boshlanishi kabi jarayonlarning jadal sur'atda oshishi ushbu sohaga bog'liq talay yangiliklarni olib keldi. Ovoz yozib oluvchi uskunalar, jumladan, "fonograf" musiqashunos-etnograflarga milliy musiqamiz namunalarini yozib olish va bu orqali ularni chuqurroq tadqiq qilish imkoniyatini berdi.

O'rta Osiyo hududida musiqiy-etnografiya bilan shug'ullangan ilk shaxslar Avgust Eyxgorn hamda Frantishek Vatslav Leyseklar hisoblanadi. Bu ikki shaxsning xalq kuy-qo'shiqlarini yozib olish hamda to'plash borasidagi say-harakatlari o'zbek etnomusiqashunosligida yirik ahamiyat kasb etadi.

V.A.Uspenskiy Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan Ota Jalol Nosirov va Ota G'iyos Abdug'anilardan Buxoro Shashmaqomini yozib olishi va notalashtirishi orqali tubdan jadallashgan ushbu muborak jarayonga keyinchalik ko'plab musiqashunos-etnograflar qo'l ura boshlashdi. Buning yo'lida turli-tuman izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi. Mazkur jarayonga o'zining ijodiy ilhomini baxshida etgan ko'plab mutaxassislar tomonidan milliy musiqamiz namunalari yozib olindi va bir-qancha nota to'plamlar bir necha ming nusxalarda nashr etildi. Jumladan, V. A. Uspenskiy, E. E. Romanovskaya, N. N. Mironov, Y. Rajabiy, Il. Akbarovlarning faoliyatlarini o'sha davr etnomusiqashunosligining poydevori sifatida e'tirof etish mumkin.

Xalqning milliyligi, madaniyati, an'anasi, urf-odatlarini, turmush-tarzi, g'ururiyu oriyatini, o'zida mujassamlashtirgan milliy musiqamiz namunalari bilan har qanday pok maqsad mushtarakligida shug'ullanish ijodkordan yuksak ma'suliyatni talab etadi. Ya'ni, milliy musiqa namunalarini yozib olish, notaga tushirish o'z yo'lga, ammo ularning mazmun-mohiyatini saqlab qolish, asl ohanglariga putur yetkazmaslik kabi masalalar ham bor. Akademik Yunus Rajabiy esa, bu talablarni

⁴³ O'zbek xalq muzikasi. To'plovchi va notaga oluvchi Y. Rajabiy. I. A. Akbarov taxriri ostida. – T., 1955. 6-b.

nisbatan mukammal bajargan holda to‘liq Shashmaqom va ko‘plab o‘zbek xalq musiqa namunalarini notalashtirdi. Ularni to‘plab, 5 jildlik “O‘zbek xalq muzikasi” hamda 6 kitoblik “Shashmaqom” to‘pamlariga joylashtirdi.

Shu o‘rinda Yunus Rajabiyning o‘zi haqida ham zikr etish darkor. U 1897-yilda Toshkentda tavvallud topgan. Yoshligidan milliy musiqiy navolar hamohangligida ulg‘ayganligi bois ushbu sohaga qiziqishi erta uyg‘ongan. Dutor va nay cholg‘ularini maromiga yetkazib ijro qilgan. Dutor chalishni Mirza Qosimdan, Keyinchalik o‘zbek mumtoz musiqa merosini Shorahim Shoumarov, Hoji Abdulaziz, To‘ychi hofiz, Domla Halimlardan o‘rgangan.⁴⁴ Hayotini shu sohaga baxshida etgan.

Sozanda, xonanda, bastakor, musiqiy-etnograf, ustoz va rahbar sifatida ko‘plab yutuqlarga erishgan, elning ardog‘idan joy olgan, shogirdlar qalbidan chuqur o‘rin egallagan akademik Yunus Rajabiy merosidan “O‘zbek xalq muzikasi” to‘plamining birinchi kitobi haqida kichik tahlil asosidagi fikr mulohazalarimiz bilan o‘rtoqlashishni lozim topdik. Ushbu birinchi to‘plam 1955-yil “O‘zbekiston SSR nashriyoti” tomonidan Toshkentda nashr etilgan. Salkam 70 yil o‘tgan bo‘lsada, shu va shu qatordagi to‘plamlarga nisbatan qiziqish, uni o‘rganish-u tahlil qilish ishtiyoqi hali-hamon mavjud. Yunus Rajabiyning soha jonkuyari ekanligini yaqqol tasdiqlay oluvchi bunday to‘plamlar soni ja‘mi 12tadir. Bular 6 ta “Shashmaqom” to‘plamlari, 5 ta “O‘zbek xalq muzikasi” (Yunus Rajabiy ushbu to‘plamlardagi musiqiy nomunalarnining ko‘pchiligini o‘zi notalashtirgan) va “Musiqqa merosimizga bir nazar” kitoblaridir.

Mazkur birinchi to‘plam tarkibidan o‘zbek xalq musiqasi namunalari, xususan, xalq ashulalari, cholg‘u kuylari, mumtoz musiqa hamda bastakorlik ijodiyoti namunalari joy olgan. Shunisi hayratlanarliki, mazkur to‘plamning adadi bugungi davrda chop etilayotgan deyarli barcha musiqiy nashrlarga nisbatan bir necha barobar ko‘pdir. Ma‘lumot o‘rnida aytib o‘tishimiz kerakki, ushbu to‘plam 10 ming nusxada nashr etilgan.

“O‘zbek xalq muzikasi” 1- kitobi Yunus Rajabiy to‘plagan boshqa 4 ta shu nomli to‘plamlar kabi Ilyos Akbarov tahriri ostida nashr qilingan. 3 bo‘limga ega bo‘lgan mazkur to‘plamda ja‘mi 198 ta nota misollari mavjud. Bulardan 126 tasi aytim, 72 tasi cholg‘u kuylaridir. Xalq musiqasi boyliklarining eng durdona namunalarini o‘zi ichiga olgan ushbu to‘plamning 1- bo‘limini asosan aytimlar, 2- bo‘limini cholg‘u kuylari va nihoyat 3- bo‘limini bastakorlik ijodiyoti namunalari tashkil qiladi. Aslida ushbu tasniflanishda biroz kamchiliklarga ko‘zimiz tushishi mumkin. Lekin, nashrdan so‘ng ko‘p yillar o‘tdi va bu kamchiliklarning tuzatilish vaqti tobora yaqinlashmoqda, deya umid qilamiz. Maqsadimiz foydalanuvchilarda to‘plam haqida salbiy fikr uyg‘otish emasligini bildirish barobarida shuni e‘tirof etish joizki, mazkur nota to‘plami o‘zining tarixiy, ilmiy va amaliy ahamiyatini hali-hanuz boy bergan emas.

Mazkur nota to‘plamining tarkibiga kirgan asarlar orqali shuni bilishimiz mumkinki, bu yerda faqatgina xalq musiqasi emas, balki mumtoz musiqa namunalari ham mavjuddir. To‘plam maqom, katta ashula, ashula, yalla, lapar,

⁴⁴ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. “R” harfi. Davlat ilmiy nashriyoti. – T., (Elektron versiyasidan foydalanildi)

suvora, kuy, qo‘shiq kabi janrlardagi musiqiy namunalardan tashkil topgan. Bunda aytilmlarning aksariyati Muqimiy, Alisher Navoiy va xalq so‘zlariga bastalangan asarlardir.

95 ta aytilmlardan tashkil topgan birinchi bo‘lim tarkibida biz yalla, lapar, qo‘shiqlardan tortib maqom ashulalarigacha kuzatish mumkin. Aytilmlar bo‘limidan ko‘plab xalq orasida mashhur musiqiy namunalar, jumladan, “Guluzorim”, “Ko‘cha bog‘i I, II”, “Bozurgoniy”, “Tanavor” kabilar o‘rin olgan. Ushbu bo‘limda Yunus Rajabiydan tashqari Nikolay Nazarovich Mironov hamda Viktor Aleksandrovich Uspenskiy notalashtirgan bir qancha namunalar ham mavjud. Masalan, “Guluzorim” ashulasi Hoji Abdulaziz Abdurasulov tomonidan Farg‘ona “Eshvoy”i asosida ishlangan va ayni shu ijroni N.N.Mironov yozib olgan hamda notalashtirgan. V.A.Uspenskiy notalashtirgan musiqiy namunalardan esa, Shorahim Shoumarovdan yozib olgan Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridan bo‘lmish Bayotlar (Bayot I, II, III, IV, V) mavjud. Bulardan tashqari aytilmlar bo‘limidagi boshqa barcha musiqiy namunalarni Yunus Rajabiyning o‘zi notalashtirgan.

Xalq va mumtoz cholg‘u kuylaridan tashkil topgan ikkinchi bo‘lim ja‘mi 66 ta misollardan iborat. Bu yerdagi namunalar ham aytilmlar bo‘limidagi kabi xilma-xildir. Ya‘ni, oddiy xalq kuylaridan tortib to maqom kuylarigacha mazkur bo‘limda mavjud. Bu quvonarli hol, albatta. Lekin, nazarimizda, to‘plamni qayta nashrdan chiqarish g‘oyasi uyg‘ongandan so‘ng tarkibidagi barcha nota misollarini o‘z janri o‘laroq alohida xalq musiqa namunalari, mumtoz musiqa namunalari kabi tasniflash maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Zero, to‘g‘ri tartiblanish yuqori sifat ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi.

To‘plamdagi uchinchi bo‘lim yuqorida zikr etilganidek bastakorlik ijodiyoti namunalaridan tashkil topgan. Bu bo‘limdan Yunus Rajabiy, Jo‘raxon Sultonov, Nabijon Xasanov, Muxtorjon Murtazoyev, G‘anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov kabi mashhur bastakorlarning ijod mahsullari joy olgan. Ushbu bo‘lim bir-biridan go‘zal bo‘lgan ja‘mi 37 ta namunadan iborat. To‘plamning nomiga u darajada mos kelmasada, mazkur bastakorlik ijodiyoti namunalari notalashtirilib ushbu kitobga joylanishi bir tarafdin ahamiyatli va muhim hodisadir.

Kitobning mazkur uchta bo‘limlaridan so‘ng keluvchi “To‘plamga kirgan asarlarning ba‘zilariga izohlar” nomli qismiga ham to‘xtalib o‘tishni joiz ko‘rdik. 198 ta asardan 154 tasi to‘liq holda izohlar qismida kelgan. Ochig‘i kitobning so‘ngida joylashgan ba‘zi asarlar izohi ham anchagina serma‘lumotli ekanligi maqtovga loyiq. Kitob so‘ngidagi izohlar ikki tilda, ya‘ni o‘zbek va rus tillarida bayon etilgan. Nafaqat izohlar, balki to‘plamning deyarli barcha matnli bo‘laklari ikki tilda yozilgan.

Bir kitobdagi ayni bir ma‘lumot ikki tilda bayon etilishi haqida gap borganda, mazkur jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan ba‘zi-bir talablarni unutmashligimiz muhimdir. “O‘zbek xalq muzikasi” to‘plamining birinchi kitobidagi “To‘plamga kirgan asarlarning ba‘zilariga izohlar” qismida ham ma‘no o‘laroq bir-biriga biroz qovushmaydigan ikki tilda kelgan ma‘lumotlar mavjud. To‘g‘ri, ma‘nullarda ushbu to‘plamni tayyorlash uchun vaqt unchalik ko‘p bo‘lmagan va buning natijasida shunday ko‘rinishdagi kichik kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lishi mumkin.

Ustozlarimiz e'tirof etganlaridek, bandaning hech-qanday ishi kamchiliksiz bo'lmaydi. Aslida, biz bunday kamchiliklarni faqat topishnigina emas, balki ularni bartaraf qilish, ya'ni, takomillashtirishni maqsad qilishimiz kerak.

Yuqorida zikr etilgan tasniflanish haqida yana bir qancha mulohazalar bilan o'rtoqlashmoqchimiz. Ushbu fikrni bot-bot takrorladik. Ya'ni, har jarayon borki, tartib uning asosiy sifatlovchisidir. Tartib ila bajarilgan mehnatning sifati va qadri doim baland bo'ladi. To'plamdagi nota namunalarining tasniflanishi ham tartiblashtirilsa, bu jarayon foydalanuvchilarga qulaylikni, tushunmovchiliklarga barhamni va natijaga sifatni olib kelishi mumkin.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bunday to'plamlarning soni birmuncha ko'paydi. Bular milliy musiqamiz namunalarining asliyatini saqlab qolish va shu orqali ularni yosh avlodga tanishtirish hamda o'rgatish uchun asoslardan bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda aytish joizki, "O'zbek xalq muzikasi" to'plamlari orqali ham bir necha o'nlab milliy musiqamiz namunalari unutilish xavfidan bartaraf bo'lgan.

Ma'lumki, vaqt o'tishi bilan mazkur turdagi to'plamlarga bo'lgan munosabatlar va talablar o'zgaradi (ortadi). Va buning natijasida ularni takomillashtirish ehtiyoji tug'iladi. Demakki, kuni kelib "O'zbek xalq muzikasi" to'plamlari qayta nashrga muhtojligi ayon bo'lsa, bu nashr to'plamlarning faqatgina takomillashishi uchun xizmat qilishi darkor.

"O'zbek xalq muzikasi" to'plami milliy musiqiy merosimiz namunalari notalashtirilishining ta'bir joiz bo'lsa, barkamol ko'rinishi deya e'tirof etishga to'laqonli loyiqdir.

Sohaning yosh mutaxasislari zamonaviy texnologiyalar rivojlanish borasida chegara bilmayotgan bir davrda bunday turli kitoblar-u nota to'plamlari amalda bizga foydasiz deya o'ylashlari mumkin. Lekin, aynan shu manbalar sohadagi rivojlanishlarning asosi bo'lib xizmat qilishi haqida unutmashimiz zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek xalq muzikasi. To'plovchi va notaga oluvchi Y.Rajabiy. I.A.Akbarov taxriri ostida. T., 1955.
2. Y.Rajabiy. Muzika merosimizga bir nazar. Fafur Fulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, T., 1978.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "R" harfi. Davlat ilmiy nashriyoti. T. (Elektron versiyasidan foydalanildi).